



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**




**BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

TEKNOLOGIK VA PROFESSIONAL TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN**



20-noyabr 2020-yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TEXNOLOGIK VA PROFESSIONAL
TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH,
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**Respublika onlayn ilmiy-texnik anjuman
materiallari to'plami**

2020-yil 20-noyabr

Buxoro – 2020

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 – yil 7 – fevraldagi 56-Φ-sonli farmoyishi asosida 2020 – yil 20 – noyabr kuni Buxoro davlat universitetida o'tkazilgan “Texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, muammolar va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to’plami, Buxoro - 2020.

“Texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, muammolar va yechimlar” Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to’plamiga ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan izlanuvchilar va tadqiqotchilar, professor-o’qituvchilar, magistrlar hamda talabalarning ilmiy ishlari kiritilgan.

Ushbu ilmiy-texnik anjumanning asosiy maqsadi texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, sohada mavjud muammolar va ularning yechimlari bo’yicha fikr almashish, ta’limning uzviyligini va uzluksizligi ta’minlash, texnologik va professional ta’limda zamonaviy o’quv adabiyotlari va dasturiy ta’lim vositalarini yaratish, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, texnologik va professional ta’limda muqobil energiya manbalariga oid bilim berish, ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, oliy ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasini rivojlantirish, ta’lim turlari o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini jadallashtirish, umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Texnologiya” fanini o’qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash borasida erishilgan yutuqlarni yoritish va muammolar yechimini topish, shuningdek, ta’lim tizimidagi hamkorlik borasida fikr almashish, mushohada yuritish, ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Anjuman materiallaridan professor-o’qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, tadqiqotchilar hamda talabalar foydalanishlari mumkin.

Tashkiliy qo’mita:

- | | | |
|-----|-------------------|--|
| 1. | O.X. Xamidov | Universitet rektori, rais; |
| 2. | O.S. Qahhorov | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | M.I. Daminov | O’quv ishlari bo’yicha prorektor, a’zo; |
| 4. | O’U. Rashidov | Moliya va iqtisod ishlari bo’yicha prorektor, a’zo; |
| 5. | S.Q. Qahhorov | Fizika kafedrası professori, a’zo; |
| 6. | H.O. Jo’rayev | Fizika-matematika fakulteti dekani, a’zo; |
| 7. | E.M. Muxtorov | Pedagogika fakulteti dekani, a’zo; |
| 8. | G.T. Zaripov | I va IPKTb bo’limi boshlig’i, a’zo; |
| 9. | A.R. Jo’rayev | Texnologik ta’lim kafedrası mudiri, a’zo; |
| 10. | Sh.H. Quliyeva | Texnologik ta’lim kafedrası dostenti, a’zo; |
| 11. | D.A. Sayfullayeva | Texnologik ta’lim kafedrası dostenti, a’zo; |
| 12. | Y.Y. Jamilov | Texnologik ta’lim kafedrası o’qituvchisi, kotib; |

Ma’ul muharrir:

- | | |
|---------------------|--|
| A.R. Jo’raev | “Texnologik ta’lim” kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD) |
| Y.Y. Jamilov | “Texnologik ta’lim” kafedrası o’qituvchisi |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------------|--|
| B. R. Adizov | pedagogika fanlari doktori, professor. |
| Sh.Sh. Olimov | pedagogika fanlari doktori, professor. |

Mazkur to’plamga kiritilgan materiallarning ilmiy saviyasi, mazmuni va ularning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir.

Buxoro davlat universiteti, 2020-y.

ilmiy-amaliy markazi bilan Xalqaro robototexnika olimpiadasi qo'mitasi (International Robot Olympiad Committee) o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumining imzolangani ulkan tarixiy voqeaga aylandi.

Ochig'i, yurtimizda avtomatlashtirilgan texnologiya bozori hali rivojlanish bosqichida turibdi. Ayni paytda sanoat robotlariga talab kundan-kun oshib bormoqda. Shu ma'noda, vazirligimiz bir qator davlatlarning bu boradagi tajribasini chuqur o'rganib, yurtimiz sanoat robototexnikasi sohasiga keng tatbiq etib kelmoqda. Masalan, Janubiy Koreyaning TEGU sanoat robototexnikasini avtomatlashtirish markazi bilan samarali hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Hozirgi paytda Janubiy koreyalik do'stlarimiz O'zbekistonda texnopark tashkil qilish qiziqishini bildirishmoqda.

Shuni qayd etish lozimki, robototexnika fanini ta'lim tizimiga izchillik bilan joriy etish kelajakda yoshlarning zamon talablariga mos fikrlash doirasining shakllanishiga zamin yaratadi. Qolaversa, nafaqat robototexnika sohasi, balki iqtisodiyotning boshqa turli tizimlari rivojlanishiga ham kuchli turtki beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarov X.N. Robototexnika asoslari. T.: TDTU, 2005, 104-b.
2. Хасанов П.Ф., Назаров Х.Н. Мобильные робототехнические системы. – Т.: ТашПИ, 1987. 98 с.
3. Робототехника Ю.Г., Андреанов и др. – М.: Машиностроение, 1984. 348 с.
4. Робототехнические системы и комплексы: учебное пособие (Х.Н.Назаров.; TGTU, - Т.: 2004, 101 стр.
5. Шахинпур Н. Курс робототехники.– М.: Мир, 1990.516с.
6. Зенкевич С.Л. Управление роботами. – М.: Изд-во MGTU, 2000. 456 с.
7. Роботехника и гибкие автоматизированные производства: Учебное пособие для втузов/под ред. И.М. Макарова. – М.: Высшая школа, 1986. 159 с.

CHAPAQAYLIK: MUAMMO YOKI QOBILIYAT

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich

BuxDU boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Maqsadga muvofiq harakatlarni bajarishda deyarli barcha holatlarda chap qo'ldan foydalanuvchilar chapaqaylardir. Ilmiy jihatdan, shaxsiy yumushlarni asosan chap qo'lda bajaruvchilar chapaqay deb ataladi. Odam bosh miyasining rivojlanish jarayonida amallar chap va o'ng yarim sharlar o'rtasida taqsimlanadi.

Bosh miya ikkita, ya'ni chap va o'ng yarim shardan iborat. Bosh miyaning chap yarim sharida nutq markazlari joylashgan. Shuning uchun ham bosh miyaning chap yarim sharida so'z bilan bog'liq barcha tafakkur operatsiyalari

amalga oshiriladi. Bosh miyaning o'ng yarim shari obyektlarning fazoviy joylashuvini tahlil qilish uchun javob beradi. Masalan, atrof-muhitdagi uylar, daraxtlar, mashinalar, haykallar va boringki, har qanday shaklga ega bo'lgan obyektlarni shakl-shamoyilini tahlil qiladi. Demak, bosh miyaning o'ng yarim shari dunyoni so'z ishtirokisiz qabul qiladi va bu yerda asosan ko'rish analizatorining ahamiyati katta. Chap yarim shar esa so'z bilan ifodalangan ma'lumotlarni qabul qiladi va tahlil qiladi. Obrazli qilib aytganda, chap yarim shar asosan so'z bilan, o'ng yarim shar esa ko'z bilan dunyoni idrok etadi. Bu uyg'unlik saqlangan bo'lsa, insonning xotirasi ham mustahkam bo'ladi.

Kitobdagi Siz ko'rayotgan geometrik shakllarni qabul qilib olish ham o'ng yarim sharning vazifasi. Biroq, har qanday fazoviy jismlar yoki geometrik shakllarni so'z bilan ifodalab berish talab qilinsa, bu yerda chap yarim shar yordamga keladi. Demak, chap yarim sharning tili bor. Biroq hozir men keltirib o'tgan misollar *o'naqaylar* uchun xos. Chapaqaylarda esa nutq markazlari bosh miyaning o'ng yarim sharida joylashgan. Demak, *chapaqaylarda* chap yarim shar bajaradigan aksariyat funksiyalar o'ng yarim shar zimmasiga yuklatilgan. Bunday tashqari *ambidekstrlar*, ya'ni oliy ruhiy funksiyalarni bajarishda miyaning ikkala yarim shari bir xilda ishtirok etadiganlar ham bor. Bundaylar ikkala qo'li bilan ham bir xil ishlay oladiganlar. Biroq, bu degani ikkala qo'li bilan ham yoza oladi, degani emas. Masalan, ambidekstr yozganda qalamni o'ng qo'lga oladi, non kesish uchun chap qo'li bilan pichoqni ushlaydi. "Toza" chapaqaylar 15 % dan oshmaydi. Bizning oramizda ambidekstrlar va o'naqaylar ko'p. Abidekstrlarda nutq funksiyasini bajarishda bosh miyaning ikkala yarim shari ham ishtirok etadi. Shu bois ambidekstrlarda insult sababli nutq buzilsa, u tez tiklanadi.

Chapaqaylardan kompozitorlar, rassomlar, futbolchilar, bokschilar va tabiatshunos olimlar ko'proq yetishib chiqadi. Nima uchun chapaqaylardan buyuk futbolchilar chiqadi, ular golni aniq va ko'p urishadi? Bu holat geometrik figuralar uchun javob beradigan o'ng yarim sharning ustunligi bilan bog'liq. Ular darvozaning har qanday burchagini to'g'ri nishonga olishadi. Chapaqaylar o'naqaylarga qaraganda hissiyotga ko'proq beriladi. Shu sabab ularni hafa qilish oson. Balkim shuning uchundir, ularda birovlardan ustunlik qilishga intilish yuqori. Biroq, chapaqaylardan yaxshi yozuvchilar chiqmaydi. Bu xususiyat o'naqaylar uchun xos.

Chapaqaylar ko'proq amaliyotchi, o'naqaylar esa nazariyotchi bo'lishadi. Chunki miyaning chap yarim shari (ya'ni so'z markazlari joylashgan yarim shar) ustunlik qiladigan o'naqaylar narsa va voqealarni tahlil qilib o'tirguncha, miyaning o'ng yarim shari ustunlik qiladigan chapaqaylar (amaliyotni yaxshi ko'radigan o'ng yarim shar) ishni darrov amalga oshiradi-qo'yadi. Nazariya bilan amaliyotni birgalikda olib borgan insonlar qaysi tipga kirishidan qat'iy nazar doimo yutuqda bo'lishini ham unutmang.

Fliders universiteti professori Mayk Nikolsning aytishicha, inson faqat genetik jihatdan chapaqay yoki aksincha bo'lib tug'ilishi mumkin. Biroq buni nuqson deyish mutlaqo noto'g'ri. Jismoniy imkoniyatlar teng bo'lganidek har ikki toifadagi odamlarning aqliy qobiliyati ham teppa-teng.

Butunjahon chapaqaylar kunini nishonlash g'oyasi ilk marotaba 1990 yilda Britaniya Chapaqaylar klubi tomonidan berilgan. 1992- yilning 13- avgustida u ilk marta nishonlangan. Klub bu bayramda chapaqay bolalarni maktablarda majburlab o'ng qo'lda yozishga o'rgatishga qarshi ekanliklarini namoyish qilib jamoatchilik e'tiborini tortishga harakat qilishadi.

Har yili 13 avgustda norasmiy ravishda Halqaro Chapaqaylar kuni (International Lefthanders Day) nishonlanadi. 1984 yilda YUNESKO 13 avgustda Chapaqaylar kunini nishonlash borasida qaror qabul qildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad chap qo'lidan ko'proq foydalanayotganlarga e'tibor qaratishdan, ular uchun mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishdan iborat. Ma'lumki, bir qator mamlakatlarda chapaqaylarni o'ng qo'lda yozishga majbur qilish hollari ham uchrab turardi. Halqaro Chapaqaylar kunining o'tkazilishidan asosiy maqsad ham mana shu kabi nohush holatlarga barham berishga qaratilgan. Birinchi o'n yillikda bu bayram tor doirada nishonlangan. Keng jamoatchilik uzoq muddat Chapaqaylar kuniga e'tibor qaratmay kelgan.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, ilk bor Halqaro chapaqaylar kuni 1976 yilning 13 avgustida Lefthanders International tashkilotining tashabbusiga ko'ra nishonlangan edi. Biroq boshqa manbalar birinchi Halqaro Chapaqaylar kuni 1992 yilning 13 avgustida Britaniya chapaqaylar klubi tomonidan o'tkazilganini aytishadi.

AQShda o'tkazilgan 1991 yilgi tadqiqotlarga ko'ra, boshqalarga nisbatan chapaqaylar ko'proq ishlab chiqarishdagi falokatlarda jarohat olar va vafot etar ekan.

Chap qo'lli odamlarning paydo bo'lishi uchun bir nechta farazlar mavjud, ularning asosiy qismi genetika faniga tegishli. 2008- yilda LRRTM1 geni aniqlandi. U meros bo'lib o'tgan va bolaning qaysi qo'lini tez-tez ishlatishini aniqlaydi.

Statistikaga ko'ra, chap qo'lli bolaning tug'ilishi ehtimoli, agar ikkala ota-onaga o'ng qo'li bo'lsa, faqat 2%. Agar ota-onalardan biri chapaqay bo'lsa, ehtimollik 17% ga oshadi va agar ota-onalarning har ikkalalari chapaqay bo'lishsa 46% hollarda chap qo'lli bolalar dunyoga keladi.

Lekin, aslida, qaysi qo'l asosiy bo'ladi, nafaqat irsiy qobiliyatga, balki perinatal asoratlar va tug'ilish shikastlanishi natijasida hamda bolaning tarbiyasi ham bog'liq bo'lishini ham unutmaslik kerak.

Mutaxassislar chapaqay bolalarning quyidagi o'ziga xos psixologik xususiyatlarini alohida e'tiborga molik deb biladilar:

- ular o'z tanalarini yaxshi biladilar, harakatlarni yaxshi muvofiqlashtirishga ega, umuman, ular ko'proq harakatchandirlar, o'z-o'zini nazorat qilishni talab qiladigan bir xillik faoliyatni yoqtirmaydilar;

- maktabda osongina geometriyani o'zlashtira oladilar, atrof muhitni tez va to'g'ri anglash qobiliyatlari bor, lekin arifmetik bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin, chunki bu erda mantiqiy fikrlash talab etiladi va bu imtiyoz - chap yarim shar ixtiyorida berilgan;

– ularda umumlashtirish qobiliyati yaxshi rivojlangan, ammo tahlil qilishga o‘rinish, aksincha, qiyinchiliklarga olib keladi;

– chap qo‘llar hissiy, ta’sirchan va zaifdir, shuning uchun ular o‘ng qo‘llarga nisbatan tez-tez haqorat, g‘azab, bezovtalanish hissini tuyishadi, ayniqsa, ular biror narsani bajarib bilishmasa;

– ular boy tasavvurga ega bo‘lgan bolalar va katta xayolparastlardir.

Yana bir maxsus guruh odamlar bor, ki ularni **ambidextra** deyishadi. Ular har ikkala qo‘llari bilan ham bir xil - yaxshi ishlab bilishadi. Ular miyalarining har ikkala yarim shari teng ravishda rivojlangan. Ambidexteriya ko‘pincha tug‘ma mahorat emas, balki ko‘p yillik doimiy mashqlar natijasida yuzaga keladigan iste’doddir. Bunga faqangina tinimsiz orqali erishiladi. Er yuzidagi odamlarning faqat 1%, albatta, ikkala qo‘l bilan ham teng va to‘laqonli faoliyat olib borib biladilar xolos. Eng mashhur ambidexters Leonardo da Vinchi, Jimi Hendrix, Keanu Reeves, Tom Cruise, Garri Truman va Mariya Sharapovalardir.

Ma’lumotlarga qaraganda, chapaqay bolalarning qo‘pchiligi o‘zining chap qo‘lda yozishidan uyalishar ekan. Bir muddat o‘ng qo‘lda yozishga harakat qilib, uddalay olmagach yana chap qo‘lda yozishni boshlashar ekan.

Ma’lumki, shu paytgacha qadar chapaqay insonlarning aksariyat noyob iste’dodga ega bo‘lishadi, degan aqida mavjud. Ba’zi olimlarning xulosalariga ko‘ra, chap qo‘lda ishlaydiganlar boshqalardan deyarli farqi yo‘q ekan.

Chapaqay bolalar yozishga biroz qiynalishadi. Chunki biror bir matnni yozayotganda chap qo‘l yozilayotgan yozuvni berkitib turadi, ular qayta-qayta yozganlariga qarayverishadi. O‘ng qo‘lda yozadiganlar esa yozganlarini ko‘rib turib davom ettiraverishadi va vaqtdan yutishadi. Aslini olganda, bu vaqtinchalik holat. Doimiy ravishda chap qo‘l bilan yozish natijasida ba’zi chapaqay bolalar o‘ng qo‘lda yozadiganlardan ham o‘zib ketishadi.

Agar ming dona sariq tennis sharlari orasiga bir dona qizil sharni aralashtirib har ikki toifaga mansub insonlarga uni topishni iltimos qilsangiz, “o‘ng qo‘l” kishi har bir sharni birma-bir ko‘zdan kechirgach, qizil sharni topadi, chap qo‘l esa ularga umumiy razm solib qizil sharni ancha avval topar ekan. Buning sababi “o‘ngqo‘llar” biror bir ishni tugatmasdan turib ikkinchi ishni boshlamas ekanlar, chapqo‘llar esa birvarakayiga bir nechta vazifani bajara olar ekanlar.

Jahonning ko‘plab mamlakatlarida o‘tkaziladigan tadqiqotlar o‘ngqo‘llarga nisbatan chapqo‘l kishilar kamchilikni tashkil qilishini ko‘rsatadi. Biroq, chapqo‘llarning o‘z-o‘zini ta’minlash, yaxshi yashashga bo‘lgan intilishlari o‘ngqo‘llarnikiga nisbatan yuqori degan fikr ham bor.

Tajribalardan ma’lum bo‘lishicha, katta yoshdagi insonlar orasida chapqo‘llar kamchilikni tashkil etar ekan. Olimlar buni inson yoshining o‘sishi bilan izohlashadi. AQSHda 20 yoshlilarning 12%, 50 yoshlilar orasida 5%, 80 yoshlilar orasida esa bor-yo‘g‘i 1%ni tashkil etar ekan. Buning sabablari hozirga qadar sir bo‘lib qolmoqda.

Dunyoda chapaqaylarga xizmat ko‘rsatadigan muassasa va tashkilotlar, firmalar juda ham ko‘p. Fiskars kompaniyasi faqat chapaqaylar uchun mahsulot ishlab chiqaradigan tashkilotlardan biridir. Kompaniya chapaqaylarga qulay

kanstelyariya mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Ruchka, o'lovlar qarama-qarshi tomonga tushirilgan chizg'ich, teskari tig'li qaychi va boshqalar.

Qadimda ruslarda chapaqaylarga ishonchsizlik bilan qarashgan, hatto sudda ko'rsatma berishlari ta'qiqlangan.

1991-yilda AQSHda o'tkazilgan tadqiqotga asosan chapqo'llar avtohalokatlar oqibatida hayotdan ko'z yumishar ekan.

1970- yilda Buyuk Britaniya yoshlar orasida chap qo'llarning umumiy sonini aniqlash uchun tadqiqot o'tkazadi. Aniqlanishicha 11-24 yoshdagi erkak va ayollarning taxminan 11%i chapqo'llar ekanini ma'lum qilgan.

Chap qo'lda yozuvchilar arab, urdu, fors yozuvlarini yozishga biroz qiynalishadi, chunki ular o'ngdan chapga qarab yoziladi.

Olimlarning aniqlashlaricha chapqo'llar o'ngqo'llarga qaraganda to'kinroq hayot kechirishar ekan.

Hayvonlar orasida ham o'ng va chap qo'llar bo'lar ekan. Bunday deb atalishining sasabi ular chap yoki o'ng old oyoqlarini qo'p ishga solishlaridir.

Chapqo'llar asosan xonanda, aktyor, kompozitor, boksyor, yozuvchi, rassom kabi kasblarga qiziqishar ekan. Haqiqatdan ham ushbu kasb egalarining ko'pchiliklari chapqo'l ekanliklari aniqlangan.

Dunyodagi 85% odamlar o'naqaylardir. Shu bois asosiy predmet va turli xildagi narsalar ular uchun yaratilgan. Agar oilada chapag'ay farzand dunyoga kelsa, unga ozgina boshqacha munosabatda bo'lishga to'g'ri keladi.

Eng asosiysi – chapaqaylik organizmning kamchiligi emas, balki o'ziga xos xususiyati deb tushunish kerak. Shu bois kichkina chapaqayni qayta o'rgatishga, faqat rost qo'ldan foydalanishga majburlamaslik kerak.

Agar farzandingiz biron bir ish qilayotganda ko'proq chap qo'lini ishlatsa bu faqatgina bola miya tuzilishining tashqi belgisidir. Mutaxassislar chapaqaylarni o'ng qo'l bilan ishlashga majbur etishni ta'qiqlaydi. Chunki miya genetik tuzilgan bo'lib, uni majburiy o'zgartirish salbiy oqibatga olib kelish mumkin.

Bosh miyaning chap yarim pallasi nutqiy doira shakllanishi, o'n qo'lda yozish va chapaqaylikka javob beradi. Shuning uchun chapaqaylarni qayta o'qitmoq miya mexanizmlarining jiddiy jarayoniga, ayniqsa nutq faoliyatiga aralashish hisoblanadi. Bu bola nevroziga olib kelishi mumkin. Chapaqaylarni qayta o'qitmoq natijalari duduqlik, disleksiya belgilarining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ilmiy tadqiqot institutining ma'lumotlariga ko'ra chapaqay bolalarning 71 foizini o'ng qo'lda yozishga o'rgatish maqsadida o'qituvchi va otana tomonidan tazyiq o'tkaziladi. Bu o'rgatish o'g'il bolalarning 26, qiz bolalarning esa 33 foizidagina natija bermoqda. Ammo qayta o'qitishning salbiy oqibatlari esa 100 foizni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Безруких М.М. Трудности обучения письму в начальной школе. М.: Новая школа. 1999. 75 с.
2. Azimov Y.Y., Qo'ldoshev R.A. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qo'llanma). Buxoro, 2017. – 130 bet.

3. Avezmurodovich, O. R. (2020). Difficulties in learning to write and read left-handed children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), 40-45.

ЛИНГВИСТИК ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ

Ҳамидова Барно Махмудовна

Жиззах давлат педагогика институти магистранти

Абдурашулова Диёра Жалиловна

Ўзбекистон Миллий Университети Жиззах филиали талабаси

Таълим мақсадлари ва мазмунини глобал модернизация қилишнинг замонавий шароитларида уни ривожлантириш технологияси ўзгариб бормоқда. Таълим жараёнига қўйиладиган талаблар, таълим дастурларининг мазмуни ва ўқув жараёнини амалга ошириш шартлари тубдан ўзгариб бормоқда.

Тизим-фаолият ёндашуви қуйидагиларни таъминлайди: талабаларнинг ўз-ўзини ривожлантириш ва узлуксиз таълим олишга тайёрлигини шакллантириш; таълим муассасасида ривожланаётган таълим муҳитини лойиҳалаштириш ва қуриш; талабаларнинг фаол ўқув-билиш фаолияти; ўқувчиларнинг индивидуал, ёши, психологик, физиологик хусусиятлари ва соғлиғини ҳисобга олган ҳолда ўқув жараёнини қуриш.

Бошланғич, ўрта ва профессионал таълимда чет тилини ўқитиш натижаларига қўйиладиган замонавий талабларга эришиш учун ўқитувчи дарсга бўлган нуқтаи назарини қайта кўриб чиқиши, таълим жараёнини қуришнинг анъанавий "билим" парадигмасидан узоқлашиши ва ўзининг педагогик миссиясининг инновацион қарашларига ўтиши керак. Бунда ўқитувчига ўқувчиларнинг мавзудан ташқари таълим фаолиятига йўналтирилган ўқитишнинг инновацион моделларидан фойдаланиш ёрдам беради. Ўқув жараёнида замонавий талаба янги натижага эришишга, янги маҳсулотни яратишга қаратилган самарали, қидирув фаолиятини амалга оширади. Талабаларнинг изланишига, билим фаоллигига, таълимнинг ҳиссий ва акс этувчи томонларига алоҳида эътибор берилади.

Биз тил тушунчасига маданий-тарихий муҳит, интеллектуал фаолият воситаси, маданият ва ахборот маконини кенгайтириш воситаси сифатида риоя қиламиз. "Тил муҳити" тушунчасининг маъноси нафақат таълим маконининг умумий гуманитар йўналишини, балки шахсга йўналтирилган таълим жараёнини ҳам ўз ичига олади.

Мактабдаги лингвистик таълим муҳити - бу ўқувчи ўз фаолиятининг янги усуллари ва механизмларини топиши, кашф этиши, тарқатиши ва шу билан ижодкорлик, ривожланиш ҳаракатларини амалга ошириши мумкин бўлган ҳаётий фаолият муҳити. Лингвистик таълим муҳити чет тилларни